



## ADABIYOT- QALB VA TAFAKKUR KO'ZGUSI

**Imomnazarova Madina**

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani

14-maktab ona tili va adabiyot fani

o'qituvchisi

**Yoqubova Zebuzar**

o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20343587>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil

Ma'qullandi: 15-may 2026 yil

Nashr qilindi: 22-may 2026 yil

#### KEY WORDS

*Adabiyot, badiiy so'z, estetik idrok, mutolaa, tafakkur, ma'naviyat, obraz, tarbiya, kitobxonlik, badiiy asar.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada adabiyotning inson ma'naviyati va tafakkurini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Ayniqsa, 6-sinf adabiyot darslari misolida badiiy asarlarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati, estetik didni rivojlantirishdagi roli hamda mutolaaning tafakkurga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, Oybek va G'afur G'ulom asarlari misolida badiiy obrazlarning tarbiyaviy mohiyati ochib beriladi.*

Insoniyat taraqqiyoti davomida yaratilgan eng buyuk ma'naviy boyliklardan biri - bu adabiyotdir. Adabiyot inson qalbining eng nozik kechinmalarini aks ettiruvchi, jamiyat hayotini badiiy talqin qiluvchi muhim san'at turidir. Har bir xalqning tarixi, orzu-intilishlari, ruhiyati va ma'naviy dunyosi uning adabiyotida mujassam bo'ladi. Shu bois ham adabiyot azaldan inson tarbiyasining eng ta'sirchan vositalaridan biri sifatida qadrlanib keladi. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadallashgan davrda yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muhim masalalardan biridir. Bu borada adabiyot fanining o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan adabiyot darslari o'quvchilarni nafaqat badiiy asarlar bilan tanishtiradi, balki ularni hayotni teran anglashga, yaxshilik va yomonlikni farqlashga, insoniy qadriyatlarini qadrlashga o'rgatadi. Adabiyot inson qalbini tarbiyalaydi, tafakkurni o'stiradi va ma'naviy kamolot sari yetaklaydi. Shuning uchun ham badiiy asarlar yosh avlod ongida ezgulik, vatanparvarlik, halollik va mehr-oqibat tuyg'ularini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Adabiyot-bu so'z san'atidir. Tasviriy san'atda ranglar, musiqada ohanglar qanday ahamiyatga ega bo'lsa, adabiyotda ham so'z shunday katta kuchga ega. Badiiy asardagi har bir tasvir, har bir ibora o'quvchi qalbiga ma'lum bir ruhiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham adabiyot inson estetik didini shakllantiruvchi muhim omillardan biridir. Mashhur adabiyotshunos olimlarning ta'kidlashicha, badiiy asar insonning nafaqat aqliy, balki hissiy dunyosiga ham ta'sir qiladi.<sup>1</sup> O'quvchi asarni mutolaa qilar ekan, voqealarni qalban his qiladi, qahramonlarning quvonchi va iztiroblarini o'z kechinmalaridek qabul qiladi. Natijada unda

<sup>1</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Fan, 2007.

go'zallikni his qilish, ezgulikni qadrlash va yomonlikdan nafratlanish tuyg'usi shakllanadi. Masalan, Oybekning "Bolalik" qissasi orqali o'quvchi XX asr boshlaridagi ijtimoiy muhitni his qiladi, xalq hayotining murakkab jihatlarini anglaydi. Asardagi samimiy tasvirlar va bolalik xotiralari inson qalbida iliq taassurot uyg'otadi. Xuddi shuningdek, G'afur G'ulomning "Shum bola" asari ham o'zining quvnoq va ta'sirchan syujeti bilan kitobxonni befarq qoldirmaydi. Asarda oddiy xalq hayoti, bolalar ruhiyati va insoniy munosabatlarning nozik jihatlarini mahorat bilan tasvirlangan.<sup>2</sup> Demak, badiiy adabiyot estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan biri bo'lib, insonning ruhiy olamini boyitadi.

Badiiy asarlardagi qahramonlar o'quvchi uchun ma'lum ma'noda hayotiy namuna vazifasini bajaradi. Chunki kitobxon asarni o'qir ekan, qahramonlarning xatti-harakatlarini kuzatadi, ularning fazilat va kamchiliklarini tahlil qiladi. Shu jarayonda o'z hayotiga ham nazar tashlaydi. 6-sinf adabiyot darslarida o'rganiladigan ko'plab asarlarda mardlik, jasorat, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Shu bilan birga, xiyonat, baxillik, yolg'onchilik kabi salbiy illatlar qoralanadi. Bu esa o'quvchini yaxshilikka intilish va yomon odatlardan yiroq bo'lishga undaydi. Adabiyotning eng muhim jihati shundaki, u tayyor xulosalarni bermaydi. Aksincha, o'quvchini mushohada yuritishga, mustaqil fikrlashga chorlaydi. Asar qahramonlarining taqdiri orqali inson hayotining murakkabligi, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash ochib beriladi. Natijada kitobxonning dunyoqarashi kengayadi, ma'naviy tafakkuri shakllanadi.

Adabiyotshunos olim Izzat Sultonning fikricha, "badiiy adabiyot inson ruhiyatining badiiy tadqiqidir".<sup>3</sup> Darhaqiqat, har bir badiiy asar inson qalbining ma'lum bir qirrasini ochib beradi. Mutolaa va tafakkur rivoji

Bugungi kunda texnologiyalar rivojlanib, inson hayotiga turli axborot vositalari kirib kelgan bo'lsa-da, kitob mutolaasi o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha, mutolaa inson tafakkurini rivojlantiruvchi eng muhim vositalardan biri sifatida qadrlanmoqda. Videotasvir yoki tayyor axborot inson tasavvurini cheklashi mumkin, biroq kitob o'qish jarayonida o'quvchi voqealarni o'z xayolida gavdalantiradi. Bu esa tafakkur va fantaziyaning faol ishlashiga sabab bo'ladi. Mutolaa davomida insonning so'z boyligi ortadi, nutqi ravonlashadi va fikrlash doirasi kengayadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, muntazam kitob o'qish insonning diqqatini jamlash qobiliyatini kuchaytiradi hamda tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.<sup>4</sup> Ayniqsa, yosh avlod uchun mutolaa ma'naviy immunitet vazifasini bajaradi. Kitobxon yoshlar turli zararli g'oyalarga nisbatan mustahkam dunyoqarashga ega bo'lib boradilar. Shuningdek, mutolaa insonning nutq madaniyatini ham shakllantiradi. Badiiy asarlar til boyligini oshiradi, so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini hosil qiladi. Shu sababli ham kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot inson qalbi va tafakkurining ko'zguvidir. Badiiy asarlar insonni hayotni chuqurroq anglashga, ma'naviy komillikka intilishga undaydi. Ayniqsa, maktab yoshidagi o'quvchilar uchun adabiyot tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan muhim fanlardan biridir. Adabiyot darslari orqali o'quvchilar nafaqat yozuvchi va shoirlarning ijodi bilan tanishadilar, balki insoniy fazilatlarini anglaydilar, mustaqil fikrlashni o'rganadilar. Kitob mutolaasi esa tafakkurni charxlaydi, estetik didni rivojlantiradi va ma'naviy dunyoni boyitadi. Shunday ekan, yosh avlodni kitobxonlikka keng jalb etish, ularda badiiy adabiyotga muhabbat

<sup>2</sup> G'afur G'ulom. Shum bola. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1986.

<sup>3</sup> Sulton I. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1980.

<sup>4</sup> Karimov N. Ma'naviyat va mutolaa madaniyati. — Toshkent: Ma'naviyat, 2015.

uyg'otish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, kitob o'qigan insonning qalbi yuksak, tafakkuri teran va ma'naviyati boy bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Oybek. Bolalik. — Toshkent: Sharq, 2004.
2. G'afur G'ulom. Shum bola. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1986.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Fan, 2007.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1980.
5. Karimov N. Ma'naviyat va mutolaa madaniyati. — Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
6. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

